



2020-yil 25-yanvardan chiqa boshlagan

2026-YIL – MAHALLANI RIVOJLANTIRISH VA JAMIYATNI YUKSALTIRISH YILI

Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 34 (1633), 2026-yil 19-fevral, payshanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz.uz_news



MULOQOTLARDA O‘ZBEKISTON – AQSH STRATEGIK SHERIKLIGINI YANADA MUSTAHKAMLASHNING AMALIY JIHATLARI MUHOKAMA QILINDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Amerika Qo‘shma Shtatlari Prezidenti Donald Trampning taklifiga binoan Tinchlik kengashining dastlabki yig‘ilishida ishtirok etish uchun amaliy tashrif bilan Vashington shahrida bo‘lib turibdi.



Prezident Shavkat Mirziyoyevning Vashingtonga amaliy tashrifi AQSH savdo vaziri Xovard Latnik bilan uchrashuvdan boshlandi.

O‘zbekiston — AQSH strategik sherikligini yanada mustahkamlashning amaliy jihatlari, shuningdek, ustuvor yo‘nalishlarda kooperatsiya loyihalarini ilgari surish masalalari muhokama qilindi.

Qo‘shma Shtatlar O‘zbekistonning asosiy sheriklaridan biri ekanligi mamnuniyat bilan qayd etildi. O‘zaro savdo hajmi 1 milliard dollardan oshdi, mamlakatimiz bozorida AQSHning 340 ga yaqin kompaniyalari faoliyat yuritmoqda.

Energetika, o‘ta muhim minerallar, transport, qishloq xo‘jaligi, axborot texnologiyalari va boshqa sohalarida yirik loyihalar muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda.

Qiymati 35 milliard dollar bo‘lgan uch yillik Iqtisodiy hamkorlik dasturi amal qilmoqda.

Ustuvor loyihalarni tizimli qo‘llab-quvvatlash uchun yaqinda tashkil etilgan Ishbilarmonlik kengashining imkoniyatlaridan foydalanish va Investitsiya platformasini ishga tushirish zarurligi ta’kidlandi.

Savdo munosabatlari rivojlantirish hamda O‘zbekiston hududlari bilan to‘g‘ridan to‘g‘ri

ishbilarmonlik aloqalarini kengaytirish muhimligi qayd etildi.

Vashington shahriga tashrifning ishbiarmonlik tadbirlari davomida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev AQSH Eksport-import banki prezidenti va raisi Jon Yovanovich hamda Xalqaro moliyaviy taraqqiyot korporatsiyasi (DFC) bosh ijrochi direktori Ben Blekni qabul qildi.

O‘tgan yili Prezident Donald Tramp bilan bo‘lib o‘tgan muzokaralar AQSH ishbiarmon doiralari bilan savdo-investitsiyaviy hamkorlikni kengaytirishga kuchli turtki bergani ta’kidlandi.

Ishbilarmonlik kengashi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash va ustuvor loyihalarni tizimli ilgari surish uchun Investitsiya platformasini ishga tushirishga alohida e’tibor qaratildi.

Eksimbank bilan hamkorlik yo‘nalishlari belgilab olindi. Yirik sanoat va infratuzilma yirik loyihalarni moliyalashtirishni kengaytirish hamda yuqori texnologiyali uskunalar yetkazib berishni qo‘llab-quvvatlash shular jumlasidan.

DFC rahbariyati bilan subhatda investitsiyaviy hamkorlik mexanizmlarini mustahkamlash muhimligi ta’kidlandi. Korporatsiyaning yirik milliy va mintaqaviy

loyihalarida ishtirok etish, moliya bozori va energetika tarmog‘ini rivojlantirish bo‘yicha rejalari qo‘llab-quvvatlandi.

O‘zbekiston Prezidenti AQSH tomonini Toshkent xalqaro investitsiya forumida ishtirok etishga taklif qildi.

Uchrashuv yakunida davlatimiz rahbari huzurida tashrif davomida imzolangan O‘zbekiston va AQSH o‘rtasida investitsiya platformasini tashkil etish to‘g‘risidagi bitim almashildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Vashingtonga amaliy tashrifi doirasidagi ishbiarmonlik uchrashuvlarining navbatdagi AQSH savdo vakili Jeymison Grir bilan bo‘ldi.

Qo‘shma loyihalar doirasida ikki tomonlama hujjatlarni imzolash marosimining amaliy natijalari muhokama qilindi.

O‘zbekiston — AQSH strategik sheriklik munosabatlari, eng avvalo, savdo-iqtisodiyot va investitsiya sohalarida barqaror sur‘atda rivojlanib borayotgani ta’kidlandi.

O‘zaro savdoni ko‘paytirish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishdagi muvaffaqiyatlar mamnuniyat bilan qayd etildi. O‘tgan yili tovar ayiriblash hajmi 1 milliard dollardan oshdi.

Mamlakatimizning JSTga a‘zo bo‘lish jarayonini yakuniga yetkazishga oid masalalarda amaliy hamkorlikni kuchaytirish va AQSH tomonidan ushbu jarayonlarni yanada qo‘llab-quvvatlashga alohida e’tibor qaratildi.

Mahsulotlarni barqaror yetkazib berish, texnik tartibga solish va raqamli savdoga oid mintaqaviy yondashuvlarni ishlab chiqish maqsadida Markaziy Osiyo mamlakatlari va AQSH o‘rtasidagi Savdo va investitsiyalar bo‘yicha hadli bitim (TIFA) doirasida hamkorlikni faollashtirish taklifi bildirildi.

Uchrashuv yakunida O‘zbekiston Prezidenti AQSH savdo vakili Jeymison Grimi joriy yilning iyun oyida bo‘lib o‘tadigan Toshkent xalqaro investitsiya forumida ishtirok etishga taklif qildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Vashington shahriga tashrifning ishbiarmonlik dasturi doirasida ikki tomonlama hujjatlarni imzolashga bag‘ishlangan marosim va qo‘shma loyihalar taqdimotida ishtirok etdi.

Tadbirda AQSH hukumati va moliya institutlari vakillari — savdo vakili Jeymison Grir, Prezidentning maxsus vakili Paolo Zampolli, Eksimbank prezidenti va raisi Jon Yovanovich, AQSH — O‘zbekiston savdo palatasi raisi Kerolin Lemm, shuningdek, “Traxys”, “Valmont

Industries”, “Gulf Oil”, “Avigen Broiler Breeding Group”, “John Deere”, “BlackRock Financial Markets Advisory”, “Oppenheimer” va boshqa yetakchi kompaniyalar rahbarlari ishtirok etdi.

Videoaloqa orqali uchrashuvda O‘zbekiston hududlari rahbarlari ham qatnashdi.

Davlatimiz rahbari o‘z nutqida yangi, amaliy formatda o‘tayotgan ushbu uchrashuv bundan avvalgi davra subbatining mantiqiy davomi hamda iqtisodiy sheriklik strategik ishonch va o‘zaro manfaatdorlik ruhida yuksak darajaga ko‘tarilayotganining ifodasi ekanini ta’kidladi.

— Bugungi kunda sheriklar ishonchli, qoidalar aniq-ravshan, hamkorlik esa uzoq muddatli bo‘lishi yetakchi o‘ringa chiqmoqda. Biz Amerika Qo‘shma Shtatlari bilan hamkorligimizni aynan shu mantiq asosida qurmoqdami, — dedi Prezidentimiz.

Mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining muhim yo‘nalishlariga to‘xtalib o‘tiladi.

Davlatimiz rahbari iqtisodiyot O‘zbekiston va AQSH o‘rtasidagi strategik sheriklikning asosiy tayanch nuqtalaridan biri ekanini ta’kidladi.

Qo‘shma Shtatlar bilan hamkorlikning ustuvor yo‘nalishlari qatorida o‘ta muhim xomashyo, neft-

kimyo, energetika, qishloq xo‘jaligi, parrandachilik va boshqa tarmoqlar ko‘rsatib o‘tiladi. AQSH Xalqaro moliyaviy taraqqiyot korporatsiyasi va Eksimbankining bitimlarga hamrohlik qilishda doimiy hamkorlar sifatidagi roli ortib borayotgani alohida qayd etildi.

Qo‘shma Ishbilarmonlik va investitsiya kengashining salohiyatidan faol foydalanish muhimligi ta’kidlandi.

Hududlararo aloqalarni mustahkamlash doirasida O‘zbekiston hududlari rahbarlarining AQSHning hamkor shtatlariga tashriflarini tashkil etish topshirildi.

Davlatimiz rahbari huzurida yoqilg‘i quyish shoxobchalari tarmog‘ini qurish, yomg‘irlatib sug‘orish texnologiyalarini joriy etish, muhim mineralarni qazib olish va yetkazib berish, parrandachilik klasterini tashkil etish, agrosanoat, moliya bozorini rivojlantirish hamda investitsiya muhitini yaxshilash bo‘yicha ikki tomonlama hujjatlar imzolandi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Amerika Qo‘shma Shtatlariga amaliy tashrifi davom etmoqda.

O‘ZA

O‘ZBEKISTON XALQIGA RAMAZON TABRIGI

Qadrlı vatandaşlar!

Avvalo, siz, azizlarni, butun xalqimizni yurtimizga mehr-oqibat, xayru saxovat va shukronalik timsoli bo‘lgan muqaddas Ramazon oyining kirib kelishi bilan chin qalbindan samimiy muborakbod etaman.

Albatta, ushbu qutlug‘ ayyomda barchamizni Ramazoni sharifga mana shunday sog‘-omon, birlik va jamijihatlikda yetkazgani uchun Parvardigori olamga cheksiz shukronalar aytamiz.

El-yurtimizning ijtimoiy-ma’naviy hayotida alohida o‘rin tutadigan, insonni ezigu va savob ishlarga da’vat etadigan ushbu oyni munosib tarzda o‘tkazish maqsadida bu yil ham mamlakatimizda katta tayyorgarlik ishlari amalga oshirilmoqda. Jumladan, mahalla va uy-joylar, masjid va madrasalarni obod qilish, keksa, nogiron va yordamga muhtoj shaxslarning holidan xabar olish, qo‘shnilar, yaqin qarindoshlarga mehr va e’tibor ko‘rsatish, ibodat va iftor marosimlarini tartibli o‘tkazishga xonadon va mahalla ahlari, jamoatchilik vakillari tarafidan alohida ahamiyat berilmoqda.

Bularning barchasi bebaho boyligimiz bo‘lgan tinchlik-osoyishtalik, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglik muhitini, insonparvarlik tamoyillarini mustahkamlash, yurtimiz taraqqiyoti, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qilishi tabiiy, albatta.

Ramazon oyining ulug‘ fazilatlarini, axloqiy-ma’naviy ahamiyatni aynan ana shunday olijanob ishlarda yaqqol namoyon bo‘ladi, desak, haqiqatni aytgan bo‘lamiz.

Bu haqda so‘z yuritganda, keyingi yillarda inson qadri, har bir fuqaroning huquq va qonuniy manfaatlarini ta’minlash, ijtimoiy

adolat O‘zbekistonda davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgani, shu asosda amalga oshirayotgan keng ko‘lamli islohotlarimiz xalqimiz hayotini tubdan o‘zgartirayotganini ta’kidlash o‘rinlidir.

Joriy yilni mamlakatimizda **“Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili”** deb e’lon qilganimiz va bu borada tegishli amaliy ishlarni boshlab yuborganimiz zamirida ham ana shunday buyuk intilishlar mujassamdir.

Jamiyatni yuksaltirish asosi mahalladir. Chunki mahallada o‘sinh va o‘zgarish bo‘lsa, butun jamiyat rivojlanadi. Mahallalarimizning yutug‘i va farovonligi pirovard natijada butun jamiyatning yutug‘i va farovonligi sifatida namoyon bo‘ladi.

Aziz do‘stlar!

Qutlug‘ zaminimiz uzra Alloh taoloning marhamati yog‘ilib turgan mana shunday saodatli kunlarda ajdodlar xotirasini, ularning ezigu ishlari, xayrli amallarini eslash va davom ettirish barchamiz uchun ham qarz, ham farzdir.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda islom dini va madaniyati ravnaqiga beqiyos hissa qo‘shgan buyuk allomalarimizning muqaddas qadamjolarini obod qilish, ilmiy merosini tiklash va o‘rganish, xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz o‘rtasida tag‘rib etish bo‘yicha ko‘pgina ishlarni amalga oshirayotganimiz sizlarga yaxshi ma’lum, albatta.

Ulug‘ ajdollarimizning shonli an’analarga sadoqat bilan yashab kelayotgan xalqimizning azmu shijoati bilan noyob me’moriy loyihalar asosida Toshkent shahrida — Islom sivilizatsiyasi markazi, Samarqandda esa buyuk muhaddis bobomiz Imom Buxoriy majmuasini bunyod etish ishlari yakuniga yetkazilganini faxr bilan aytib o‘tmoqchiman.

Ramazoni sharif kunlarida muhtaram ulamolimiz, ilm-fan va ijod ahli, keng jamoatchilik vakillari ishtirokida ana shu tabarruk maskanlarda buyuk aziz-avlilo va allomalarimiz xotirasiga ehsan dasturxonlari yozib, bu muqaddas ziyoartog‘ohlar eishiklarini xalqimiz uchun keng ochishni reja qilganimiz va bu ishlarni albatta amalga oshiramiz.

Afsuski, hozirgi vaqtda jahonning turli mintaqalarida urush va janjallar davom etmoqda. Pok niyatlar qabul bo‘ladigan ushbu muborak ayyomda nizo va adovatlar barham topib, tinchlik, o‘zaro ishonch va hamkorlik aloqalari qaror topishini chin dildan istab qolamiz.

Fursatdan foydalanib, uzoq va yaqin mamlakatlardagi vatandoshlarimizga, butun musulmon ummatiga ham samimiy tabrik va tilaklarimizni yo‘llaymiz.

Muhtaram yurtdoshlar!

Sizlarni ezigulik, mehr-muruvvat va baraka oyi — mohi Ramazonning boshlanishi bilan yana bir bor tabriklayman.

Ushbu shukuhli kunlarda barchangizga sihat-salomatlik, oilaviy baxt-saodat, xonadonlaringizga tinchlik va farovonlik tilayman.

Ro‘za kunlarida qilinadigan barcha ibodatlar, ezigu niyat va amallar ijobat bo‘lsin!

Xalqimizni, Vatanimizni Yaratganning o‘zi panohida asrasin!

Ramazon oyi barchamizga muborak bo‘lsin!

Shavkat MIRZIYOYEV,
O‘zbekiston Respublikasi
Prezidenti

DAVLAT BOSHQARUVIDA YANGI SIFAT, JAMIYAT HAYOTIDA YANGI MAZMUN

So‘nggi yillarda mamlakatimizdagi islohotlar jarayonini tahlil qilar ekanmiz, bitta muhim xulosa o‘z-o‘zidan namoyon bo‘ladi: taraqqiyot endi alohida sohavi qarorlar yoki qisim o‘zgarishlar emas, balki yaxlit, o‘zaro bog‘liq va natijaga yo‘naltirilgan davlat siyosati mantig‘i asosida shakllanmoqda. Shu ma’noda,

Prezidentimizning “Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili” doirasida ustuvor yo‘nalishlar bo‘yicha islohotlar dasturlari hamda “O‘zbekiston — 2030” strategiyasini amalga oshirishga qaratilgan davlat dasturi to‘g‘risida”gi farmoni mazkur jarayonning navbatdagi, sifat jihatdan yangi bosqichini ifodalaydi.




Davomi 3-betda



Munosabat

66

O'zbekiston Prezidentining Tinchlik kengashining birinchi yig'ilishidagi ishtiroki Toshkent va Vashington o'rtasidagi siyosiy muloqot sezilarli darajada faollashgani bilan bir vaqtga to'g'ri kelgani tashrifga qo'shimcha ahamiyat bag'ishlaydi.



AQSHDA O'ZBEKISTON ISHONCHLI VA MAS'ULIYATLI HAMKOR SIFATIDA QABUL QILINMOQDA

Vengriyaning Karoy universiteti huzuridagi Britaniya va Amerika tadqiqotlari instituti katta ilmiy xodimi Esterxaz Zoltan Peteresh O'zbekiston Prezidentining 17-fevral kuni boshlangan AQSHga amaliy tashrifidan kutilayotgan natijalar xususida fikr bildirdi:



qaralmoqda. Uning yaratilishi xalqaro hamjamiyatning mojarolarning oldini olish va hozirgi zamonning, avvalo, Yaqin Sharqdagi keskin inqirozlarning siyosiy yechimlarini topish uchun qo'shimcha diplomatik vositalarni shakllantirishga bo'lgan obyektiv talabini aks ettiradi. Shu munosabat bilan O'zbekistonning ta'sischi davlatlar qatorida ishtirok etishi Toshkentning muloqot diplomatiyasini ilgari surish, xalqaro huquq normalarini hurmat qilish va kuch bilan hal etish ssenariylaridan voz kechish yo'lining mantiqiy davomi sifatida talqin qilinadi.

O'zbekiston Prezidentining Tinchlik kengashining birinchi yig'ilishidagi ishtiroki Toshkent va Vashington o'rtasidagi siyosiy muloqot sezilarli darajada faollashgani bilan bir vaqtga to'g'ri kelgani tashrifga qo'shimcha ahamiyat bag'ishlaydi. Keyingi oylarda oliy darajadagi muloqotlar sezilarli darajada faollashgani ikki tomonlama munosabatlar sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarilganidan dalolat beradi. AQSHda O'zbekiston xalqaro muammolarini hal qilishda ishtirok etishga tayyor, muvozanatli tashqi siyosat yuritadigan, ishonchli, oldindan aytish mumkin bo'lgan va mas'uliyatli hamkor sifatida namoyon bo'lyapti.

Vengriyaga kelsak, Viktor Orban hukumati Tinchlik kengashini tuzish tashabbusiga istiqbolli xalqaro mexanizm sifatida qaraydi. AQSH Prezidenti Donald Trampning Vengriya Bosh vaziriga ushbu tashkilotga a'zo bo'lish taklifi Budapeshtda jiddiy diplomatik yutuq va mamlakatning jahon siyosatidagi sezilarli rolining tasdig'i sifatida qabul qilindi.

Umuman olganda, O'zbekiston va Vengriyaning Tinchlik kengashidagi ishtiroki tashabbusga qo'shimcha geografik va siyosiy kenglik beradi, uning qonuniyligini kuchaytiradi.

"Dunyo" AA

Budapesht shahri

O'ZARO OCHIQLIK VA UMUMIY MANFAATLARGA ASOSLANGAN YANGICHA SIYOSIY TAFAKKUR



Zuhra MIRG'OZIYEVA,
Oliy Majlis Qonunchilik
palatasi deputati



Yangi O'zbekiston ruhi

Eksptlar O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning AQSH Prezidenti Donald Trampning taklifiga binoan 17-19-fevral kunlari Tinchlik kengashining dastlabki yig'ilishida ishtirok etishini mamlakatimizning global tinchlik yo'lida tashlangan yana bir muhim qadami sifatida baholayotgani bejiz emas. Zero, Kengashning AQSH Tinchlik institutida bo'lib o'tadigan ilk sammiti G'azo sektorini tiklash, unga gumanitar yordam ko'rsatish, ushbu mintaqada tinchlik va barqarorlikni ta'minlash masalalariga bag'ishlanadi va alohida ta'kidlash lozimki, O'zbekiston bu borada o'zining amaliy harakatlarini allaqachon boshlagan.

19 taga yetganini ham alohida qayd etish lozim. Qozog'iston, Ozarbayjon va Tojikiston bilan esa ittifoqchilik munosabatlari yo'lga qo'yildi. Umuman, 2017-yildan buyon xorijiy davlatlarda 16 ta yangi diplomatik va konsullik vakolatxonasi ochildi hamda ularning soni 60 taga, diplomatik aloqa o'rnatilgan davlatlarniki esa 165 taga yetdi.

Bugun Toshkentda 60 dan ortiq davlatning elchixonasi, konsulligi hamda faxriy konsullari faoliyat yuritmoqda. Shuningdek, 26 ta xalqaro tashkilot vakolatxonalari ochilgan. O'zbekiston 100 dan ortiq nufuzli tashkilotlarning teng huquqli a'zosi.

Teng sheriklik va do'stona munosabatlar asosiga qurilgan tashqi hamkorlik yurtimiz rivoji, xalqimiz farovonligi oshishiga ham xizmat qilyapti. Masalan, o'tgan yili tariximizda ilk bor mamlakatimiz tashqi savdo aylanmasi 80 milliard, eksport qiymati esa 33,5 milliard dollarni tashkil etdi. Xorijiy investitsiya miqdori 43,1 milliard dollarlik ko'rsatkichga yetdi.

Tariximizda birinchi marta O'zbekiston yalpi ichki mahsuloti 145 milliard dollardan oshdi. Islohotlar uchun mustahkam moliyaviy baza bo'lgan oltin-valyuta zaxiralarmiz 60 milliard dollardan oshdi. 5 million yurtdoshimiz daromadli bo'lib, ishsizlik darajasi 5,5 foizdan 4,9 foizga, kambag'allik darajasi esa 8,9 foizdan 5,8 foizga tushdi. Bu 1,5 million ehtiyojmand fuqaro kambag'allikdan chiqdi, 1435 ta mahalla kambag'allikdan xoli hududga aylandi, deganidir. Eng asosiysi, islohotlar samarasini har bir mahalla, xonadon va har bir inson kundalik hayotida his qilmoqda. Chunki biz islohotlarni aniq amaliy natijaga aylantirishni o'rgandik.

Yana bir muhim ko'rsatkich: 2025-yilda vizasiz tartib joriy etilgan davlatlar soni 94 taga yetdi. Bu yurtimizga kelayotgan xorijlik sayyohlar sonining 11,5 million oshishini, turistik xizmatlar eksporti qiymati esa 4,8 milliard dollarga yetishini ta'minladi. Ayniqsa, Markaziy Osiyo davlatlarining umumiy sayyohlik oqimida ichki mintaqaviy turizmning ulushi 80 foizdan oshdi. Albatta, mazkur natijalarning barchasi xalqaro hamkorlik mazmun jihatidan yangi bosqichga chiqqani bilan bevosita bog'liq.

O'zbekistonning tashqi dunyoda vazmin va oqilona, uzoqni ko'zlab yuritayotgan siyosati Markaziy Osiyoda taraqqiyotning yangi, tarixiy ahamiyatga molik bosqichini boshlab berdi. O'timishi va qadriyatlarini, tili, dini, madaniyati va urf-odatlarini o'xshash bo'lgan qo'shni, qardosh davlatlar o'rtasida bugun tom ma'noda chinakam birdamlik muhiti qaror topdi. Dunyoga o'nak bo'larli darajada o'zaro ishonch, yaxshi qo'shniçilik va hurmat muhiti shakllandi.

Qayta tiklangan tarixiy rishtalarni xalqaro hamjamiyat ham alohida mamnuniyat bilan e'tirof etmoqda va bu bejiz emas. Yaqin tariximizda shunday davrlar ham bo'ldi: qardosh davlatlar o'rtasida iqtisodiy hamkorlik nafaqat boshi berk ko'chaga kirdi, balki chegara, suv resurslari bilan bog'liq qurolli to'qnashuvlar yuz berishi xavfi paydo bo'ldi.

Prezidentimizning tashabbusi bilan Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlari Maslahat uchrashuvi yo'lga qo'yildi va 2017-yil mintaqaviy hamkorlik tarixida tub burilish yili bo'ldi. Mintaqadagi davlat rahbarlari uzoq yillar mobaynida birinchi marta tashqi vositachilarsiz doimiy muloqotga kirishdi va bugun bu tuzilma o'zaro ishonch, ochiqlik va umumiy manfaatlariga asoslangan yangicha siyosiy tafakkur ramziga aylandi.

Aynan Maslahat uchrashuvlari tufayli eski davrdan qolgan ko'plab kelishmovchiliklar bartaraf etildi. Ishonchsizlikdan haqiqiy hamkorlik yo'lga o'tildi. Xususan, chegara bilan bog'liq masalalar uzil-kesil hal etildi. Bir paytlar qardosh xalqlarni ajratib turgan to'siqlar do'stlik va hamkorlik ko'prigiga aylandi. O'tgan yili mart oyida O'zbekiston, Qirg'iziston va Tojikiston o'rtasida uch davlatning chegaralari tutashgan nuqta to'g'risidagi shartnoma va Xo'jand deklaratsiyasi imzolangan haqli ravishda olamshumul voqea bo'ldi.

O'zaro hamkorlik mintaqada iqtisodiy aloqalar rivojini yangi bosqichga ko'tardi. So'nggi sakkiz yilda Markaziy Osiyo davlatlarining YIM qariyb 2,5 barobar o'sib, 520 milliard dollarga, tashqi savdo esa 2 karradan ziyod ko'payib, 253 milliard dollardan oshdi. Savdo hajmi qariyb 11 milliard dollarga, investitsiyalar miqdori esa 5,6 barobarga yetdi.

Ushbu ko'rsatkichlarni mamlakatimiz miqyosida olsak, O'zbekistonning qo'shilar bilan tovar ayirboshlash hajmi 2016-yildagi 2,4 milliarddan 2024-yilda 7,2 milliard dollarga yetdi.

Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining Toshkentda o'tgan yettinchi Maslahat uchrashuvida davlatimiz rahbari taklifi bilan tuzilmaga Ozarbayjonning qo'shilishi qardosh xalqlarimiz uchun haqiqatan tarixiy kun bo'ldi. Qayd etilganidek, bu harakat Maslahat uchrashuvlariga kuch, shiddat berish barobarida hamjihatlikda qarorlar ishlab chiqishda ham yangi uqlarni ochadi.

2022-yilda Markaziy Osiyo davlatlarining ko'p tomonlama hamkorlik konsepsiyasi tasdiqlandi. Uning doirasida "Markaziy Osiyo plyus" muloqoti yo'nalishlari belgilandi va bu institut mintaqaning xalqaro huquqiy subyekti sifatidagi mavqeiini yanada kuchaytirdi. Ilgari tashqi hamkorlik ikki tomonlama yo'lga qo'yilgan bo'lsa, bugun yetakchi davlatlar Markaziy Osiyo bilan munosabatlarni yaxlit mintaqaviy sherik, yagona subyekti sifatida rivojlantirmoqda.

Qisqa muddatda ushbu formatda oliy darajadagi o'ndan ortiq uchrashuv o'tkazildi. 2025-yilning o'zida bo'lib o'tgan "Markaziy Osiyo + Yevropa Ittifoqi", "Markaziy Osiyo + Xitoy", "Markaziy Osiyo + Rossiya", "Markaziy Osiyo + AQSH" va "Markaziy Osiyo + Yaponiya" sammitlari mintaqa strategiyasi global darajada oshib borayotganini tasdiqlaydi.

O'zbekistonning Turkiy davlatlar tashkilotidagi o'rni ham alohida ahamiyatga ega. Mamlakatimizning 2019-yil sentabrdan mazkur tashkilotga to'laqonli a'zo bo'lgani tuzilmadagi bo'shliqni to'ldirdi. Tashkilot nufuzi va a'zolar o'rtasidagi integratsiya jarayoni kuchayishiga sabab bo'ldi. Rasmiy Toshkent tashkilotni modernizatsiya qilishda asosiy kuchga aylandi. Chunki O'zbekistonning ishtirokisiz tashkilot to'laqonli faoliyat yuritishi mumkin emas.

Tashkilotning Samarqandda o'tgan sammitida Prezidentimiz ilgari surgan qator tashabbuslar qog'ozga ko'chdi. "Samarqand deklaratsiyasi", 2022-2026-yillarga mo'ljallangan TDT strategiyasi, "Turkiy dunyo nigohi — 2040" konsepsiyasi, Turkiy investitsiya jamg'armasining tashkil etilishi shular jumlasidan.

Prezidentimiz shu yil 15-yanvar kuni Tashqi ishlar vazirligi hamda xorijdagi diplomatik vakolatxonalar vakillari bilan uchrashuvda mamlakatimizning Tashqi siyosat faoliyati konsepsiyasini yangilash zarurligini ta'kidladi. Unda ustuvor yo'nalishlar qayta ko'rib chiqilishi, milliy manfaatlar himoyasi hamda xalqaro maydonda mamlakatimizning o'rni yanada mustahkamlashga qaratilgan aniq vazifalarni belgilash muhimligini qayd etdi.

Umuman, yangi O'zbekistonning o'zaro ishonchga asoslangan konstruktiv va faol tashqi siyosati haqida uzoq gapirish mumkin. Zero, tobora globallashayotgan dunyoda bugun hech bir mamlakat tashqi hamkorlarsiz mustaqil rivojlana olmaydi.

Saxovat, mehr-oqibat va shukronalik oyi

ARZONLASHTIRILGAN MAHSULOTLAR YARMARKALARI ISH BOSHLADI

Joriy yil 13-fevral kuni davlatimiz rahbari raisligida tarmoq va hududlarda yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlash bo'yicha asosiy vazifalar muhokamasiga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishi bo'lib o'tgan edi. Unda Ramazon oyi arafasida ichki bozorlarda narx-navo barqarorligini ta'minlash masalasi ham muhokama qilindi.

Mazkur vazifalar ijrosiga jiddiy qaralmoqda. Jumladan, Surxondaryo viloyatida ham Ramazon oyini milliy qadriyatlarimizga mos yuksak saviyada o'tkazishga katta tayyorgarlik ko'rildi. Ayni kunlarda viloyatning barcha shahar va tumanlaridagi 15 ta asosiy oziq-ovqat bozori hududida arzonlashtirilgan mahsulotlar yarmarka savdosi yo'lga qo'yildi. Ularda asosiy turdagi oziq-ovqat mahsulotlari aholiga maqbul va barqaror narxlarda sotilmoqda.

— Denov dehqon bozoridagi yarmarkada qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat mahsulotlarini bozordagidan ancha arzon narxda sotib oldik, — deydi O'shor qishloq'ida yashovchi

Salohiddin Eshonqulov. — Bunday imkoniyat bizni xursand qildi.

Bu odamlarga yaxshilik qilishning, saxovatning eng ommabop, samarali yo'li deb o'ylayman.

Surxondaryoda 2025-2026-yillar qishbahor mavsumi uchun ichki iste'mol bozorini barqaror ta'minlash maqsadida asosiy turdagi jami 39 ming 552 tonna qishloq xo'jaligi mahsulotlari jamg'arilgan edi. Hozir bu mahsulotlar bosqichma-bosqich bozorlarga chiqarilib, aholiga arzon va barqaror narxlarda taklif etilmoqda.

Surxondaryo viloyati markazi Termiz shahrida faoliyat yuritayotgan "Yashil dunyo" markaziy dehqon bozorida tashkil



etilgan yarmarka aholi uchun juda qulay. Shu bois, yarmarka doim odamlar bilan gavjum.

— Termizdagi yarmarkada tadbirkorlar, sotuvchilar, xaridorlar uchun yetarli sharoitlar, xazira mavjud, — deydi tadbirkor Jahongir Mubayev. — Yarmarkaga barcha, ya'ni qayta ishlash korxonalari, kichik biznes vakillari va tadbirkorlar, chorvachilik, parrandachilik, asalarichilikka ixtisoslashgan xo'jaliklar jalb etilgan. Bu esa mahsulotlar turi va sifati yaxshilanishiga xizmat qilmoqda.

Umuman, arzon narxdagi qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat mahsulotlari savdosini tashkil etishga vohaning barcha hududida jiddiy e'tibor qaratilgan. Masalan, Ramazon oyi munosabati bilan Angor oziq-ovqat markaziy dehqon bozori hududida ham yarmarka tashkil etildi. Bu yarmarkada 30 turga yaqin mahsulot xaridorlarga qulay narxda sotilyapti.

— Bozor peshtaxtlarini zarur mahsulotlar bilan uzluksiz ta'minlash, narx-navo sun'iy oshirib ketishiga yo'l qo'yimaslik maqsadida

mas'ul idoralar xodimlari doimiy nazorat qilib boryapti, — deydi "Angor dehqon va oziq ovqat bozori" MCHJ rahbari Sherzod Samandarov. — Bozorda qishloq xo'jaligi mahsulotlari zaxirasi yaratildi. Bozorni oralay, insonlarni kuzatsangiz, ularning yuz-ko'zida masrurlik, ertangi kunga ishonchni ko'rasiz.

Viloyatda 33,5 ming gektarga to'qson-bosti ekinlari ekilgan. Buning hisobidan erta bahorda 711 ming tonna mahsulot yetishtiriladi. 161 ming tonna piyoz, 118 ming tonna sabzi, 40 ming tonna ko'kat, 1,5 ming tonna sarimsoqpiyoz, 227 ming tonna karam hosili olish ko'zlanmoqda. Bundan tashqari, fermer va dehqon xo'jaliklari 15 ming gektarga kartoshka ekishni reja qilgan. Bularning barchasi xalqimiz dasturxonini to'kin bo'lishiga, barchaga teng imkoniyat yaratishga xizmat qiladi.

Sarvar TO'RAYEV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri



DAVLAT BOSHQARUVIDA YANGI SIFAT, JAMIYAT HAYOTIDA YANGI MAZMUN



Akrom TOSHPOLATOV,
Oliy Majlis Qonunchilik
palatasi huzuridagi
Parlament tadqiqotlari
instituti direktori,
yuridik fanlar doktori

Boshlanishi 1-betda

Hujjat mazmunini chuqur tahlil qilar ekanmiz, uni oddiy reja yoki chora-tadbirlar majmuasi sifatida qabul qilish muloqot noto'g'ri bo'lar edi. Gap, avvalo, davlat boshqaruvi falsafasidagi o'zgarish — “hujjat ishlab chiqish”dan “real natijaga erishish” tamoyiliga tizimli o'tish haqida bormoqda. Bunday yondashuv esa davlatning jamiyat oldidagi mas'uliyati, ijro intizomi va hisobdorlik madaniyatini muloqot yangi pog'onaga olib chiqadi.

2026-yilga mo'ljallangan islohotlar dasturlari Prezidentimizning xalqimiz va parlamentga yo'llagan Murojaatnomasida ilgari surilgan g'oyalari bilan chambarchas bog'liq. Bu yerda muhim jihat shundaki, Murojaatnoma siyosiy irodaning ifodasi sifatida qolib ketmayapti, balki aniq mexanizmlar, mas'ul ijrochilar, moliyaviy manbalar va o'lchanadigan natijalar bilan mustahkamlanmoqda. Davlat siyosatidagi bunday uzluksizlik parlament nazorati va huquqiy tahlil nuqtayi nazaridan ham alohida ahamiyatga ega. Bu yerda strategik maqsadlar bilan kundalik davlat boshqaruvi o'rtasida ulushilish yo'q, aksincha, ular o'zaro bir-birini to'ldirib, yagona mantiqiy zanjirni tashkil etmoqda.

2026-yildagi islohotlarda iqtisodiyotni texnologik va innovatsion o'sish modeliga o'tkazish masalasi markaziy o'rin egallaydi. Bu yerda asosiy e'tibor faqat ishlab chiqarish hajmini oshirish emas, balki qo'shilgan qiymat, mehnat unumdorligi va raqobatbardoshlikka qaratilayotgani alohida qayd etilishi lozim. Bugungi global raqobat sharoitida arzon ishchi kuchi yoki xomashyo resurslariga tayanch modeli o'z imkoniyatlarini deyarli tugatdi.

Texnologik o'sish deganda faqat zamonaviy uskunalar yoki raqamlashtirish emas, balki butun ishlab chiqarish zanjirini qayta ko'rib chiqish, qo'shilgan qiymatni oshirish, ilmiy ishlanmalarni iqtisodiyotga joriy etish nazarda tutiladi. Bu jarayonda biznes-inkubatorlar, innovatsion klasterlar va startap ekotizimini rivojlantirish alohida ahamiyat kasb etadi.

Ichki bozorda talabni rag'batlantirishga qaratilgan choralar esa iqtisodiy o'sishni aholi daromad bilan bog'lash imkonini beradi. Ipoteka, elektromobil xaridi uchun kredit mexanizmlarini takomillashtirish nafaqat iqtisodiy faollikni oshirish, balki ekologik va ijtimoiy maqsadlarga ham xizmat qiladi.

Ichki bozorda talabni rag'batlantirish, ipoteka va elektromobil xaridi uchun kredit mexanizmlarini takomillashtirish kabi tashabbuslar iqtisodiy o'sishning oddiy raqamlardan odamlar hayotiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan omilga aylanishini ta'minlaydi. Bunday yondashuv ijtimoiy adolat va iqtisodiy samaradorlik o'rtasidagi muvozanatni saqlashda g'oyat muhim.

2026-yil islohotlarida mehnat bozoriga yondashuv sifat jihatidan o'zgarmog'da. Endi gap faqat ish o'rinlari ochish haqida emas, balki ularning mehnat bozoridagi real talabga mosligi, barqarorligi va inson salohiyatini rivojlantirishga xizmat qilishi haqida ketmoqda.

Kasblarni rivojlantirish, sanoat zonalarida huzurida kasbiy qayta tayyorlash markazlarini tashkil etish, yangi mehnat bozori arxitekturasini yaratish — bularning barchasi inson kapitaliga qaratilgan islohotlardir. Davlat siyosatida mehnat bozorini faqat ish o'rinlari soni bilan

emas, balki ularning sifati, barqarorligi va kelajakka yo'naltirilgani bilan baholash tamoyili mustahkamlanmoqda.

Bu jarayonda ta'lim, ishlab chiqarish va davlat institutlari o'rtasidagi hamkorlik hal qiluvchi ahamiyatga ega. Aynan shu bog'liqlik iqtisodiy o'sishni uzoq muddatli va barqaror qiladi.

Sanoat zonalarida huzurida kasbiy qayta tayyorlash markazlarini tashkil etish bu borada muhim institutsional yechimdir. Bu orqali ta'lim tizimi bilan ishlab chiqarish o'rtasidagi uzilish qisqaradi, kasb-hunar ta'limi bozor ehtiyojlariga moslashadi.

Bunday yondashuv mehnat migratsiyasi, yoshlar bandligi va kambag'allikni qisqartirish masalalarida ham ijobiy natija berishi kutilmoqda. Chunki inson kapitaliga kiritilgan sarmoya — eng barqaror investitsiya.

Ekologiya sohasida belgilangan maqsadlar qayta tiklanuvchi energiya manbalarining ulushini oshirish, energiya samaradorligi bo'yicha KPI joriy etish, utilitatsiya va qayta ishlash zanjirini shakllantirish davlat siyosatida ekologik mas'uliyatning institutsionallashuvidan dalolat beradi.

Ekologik muvozanatni ta'minlash, suv resurslaridan oqilona foydalanish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarining ulushini 30 foizga yetkazish kabi maqsadlar bugunning talabidan kelib chiqqan holda belgilanmoqda. Bu yo'nalishdagi KPI ko'rsatkichlarining joriy etilishi ekologik siyosatni deklaratsiyadan amaliy natija darajasiga ko'tarishga xizmat qiladi.

Bu yerda muhim jihat shundaki, ekologik siyosat faqat cheklov va taqidor emas, balki iqtisodiy rag'bat va samaradorlik ko'rsatkichlari orqali amalga oshirilmoqda. Energiya tejaydigan texnologiyalar, “yashil iqtisodiyot” elementlarini joriy etish biznes uchun ham yangi imkoniyatlar yaratadi.

Daraxt kesish uchun javobgarlikni qat'iy lashtirish, utilitatsiya va qayta ishlash zanjirini yo'lga qo'yish kabi tashabbuslar esa ekologik madaniyatni shakllantirish bilan bir qatorda huquqiy mexanizmlarni ham mustahkamlaydi.

Islohotlar dasturlarida har bir tashabbus uchun aniq KPI belgilanishi, shaxsan javobgar rahbarlar va muvofiqlashtiruvchi tashkilotlar ko'rsatilgani davlat boshqaruvida muloqot yangi standartlar joriy etilishini ko'rsatmoqda. Ushbu yondashuv ijro intizomini kuchaytiradi, byurokratik sustashlikka barham beradi va parlament hamda jamoatchilik nazorati samaradorligini oshiradi.

Dasturlarning to'g'ridan to'g'ri amal qilish mexanizmlariga ega ekan, ayrim tashabbuslar uchun qo'shimcha hujjat talab etilmasligi davlat apparatida qaror qabul qilish sur'atini oshirishga xizmat qiladi.

2026-yilga mo'ljallangan islohotlar dasturlarining eng muhim xususiyati shundaki, ular alohida sohalarni bo'lingan holda emas, balki davlat, iqtisodiyot va jamiyat o'rtasidagi o'zaro bog'liq tizim sifatida ko'radi. Islohotlarning samaradorligini ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Chunki bugungi murakkab ijtimoiy-iqtisodiy sharoitda bir sohada iqtisodiy o'zgarish ikkinchisiz barqaror natija bermaydi.

Shu ma'noda, islohotlar dasturlari sohaviy qamrovi, institutsional teranligi va ijro mexanizmlari bilan avvalgi amaliyotdan tubdan farq qiladi.

Hujjatda mahallaga alohida e'tibor qaratilayotgani tasodifiy holat emas. Mahalla bugun nafaqat ijtimoiy institut, balki davlat va jamiyat o'rtasidagi eng muhim muloqot maydoniga aylanmoqda. Infratuzilmani takomillashtirish, ichki yo'llar, piyodalar va velosiped yo'llaklari, jamoat maskanlari, xizmatlar sifati — bularning barchasi yangi O'zbekiston qiyofasini, eng avvalo, mahallada shakllantiradi. Ularning sifati va barqaror bunyod etilishi mahalladagi turmush



madaniyatini o'zgartiradi, aholi faolligini oshiradi, jamoaviy mas'uliyatni kuchaytiradi.

Shu nuqtayi nazardan qaraganda, mahallalar mablag'ining ochiq va shaffof sarflanishi, hisobdorlik mexanizmlarining kuchaytirilishi davlat moliyasi ustidan parlament nazoratini o'rnatishda ham muhim instrumentdir. Shuningdek, fuqarolarning bevosita ishtiroki ta'minlanishi esa ijtimoiy ishonchni mustahkamlaydi.

Mahallalar infratuzilmasini takomillashtirish masalasi islohotlar dasturlarida faqat qurilish yoki obodonlashtirish vazifasi sifatida qo'yilmagan. Gap, avvalo, mahallaning ijtimoiy va boshqaruv instituti sifatidagi rolini kuchaytirish haqida bormoqda.

Shu bilan birga, mahalla mablag'i sarfida ochiq hisobdorlikni joriy etish institutsional jihatdan juda muhim qadam. Natijada fuqarolar davlat qarorlarining passiv iste'molchisi emas, balki faol ishtirokchisiga aylanadi. Parlament nazorati nuqtayi nazaridan esa yangi mexanizmlar mahalliy darajada moliyaviy intizomni ta'minlashga xizmat qiladi.

Islohotlar dasturlarida davlat boshqaruvi va sud-huquq tizimini takomillashtirish masalasiga alohida blok sifatida qaratilgan. Asosiy e'tibor institutsional samaradorlik, hisobdorlik va ochiqlikka qaratilmoqda.

Jinoyat ishlari bo'yicha sudlarda xalq vakillari hay'ati ishtirokini joriy etish tashabbusi sud hokimiyatiga ishonchni oshiradi va sud qarorlarining jamoatchilikka yaqinlashuvini ta'minlaydi, adolat hissini kuchaytiradi. Korruptsiyaga qarshi kurashishni yangi bosqichga olib chiqishda faqat jinoiy javobgarlikni kuchaytirish bilan cheklanib qolmaydi. Profilaktika, institutsional shaffollik va raqamlashtirish alohida o'rin tutadi.

Islohotlar dasturlarida har bir tashabbus uchun KPI belgilanishi va shaxsan javobgar rahbarlarning aniq ko'rsatilishi davlat boshqaruvida juda muhim o'zgarish. Bu orqali ijro natijasi shaxsiy mas'uliyat bilan bog'lanadi, kollektiv javobgarlik ortida yashirinlash imkoniyati kamayadi.

Umuman olganda, islohotlar dasturlari sohalari bo'yicha emas, balki institutsional mantiq asosida qurilgan. Mahalladan boshlab markaziy davlat organlarigacha bo'lgan butun boshqaruv tizimida natija, hisobdorlik va ochiqlik tamoyillari ustuvorlik kasb etmoqda. Bu esa

davlat siyosatini qog'ozda qoladigan rejalardan odamlar hayotida seziladigan o'zgarishlar darajasiga olib chiqish imkonini beradi.

“O'zbekiston — 2030” strategiyasini 2026-yilda amalga oshirishga qaratilgan davlat dasturi mazmunan ham, shaklan ham mamlakatda davlat rejalashtirish madaniyatining yangi bosqichini anglatadi. Agar strategiya uzoq muddatli maqsad va yo'nalishlarni belgilab bersa, davlat dasturi aynan shu maqsadlarni hayotga tatbiq etishning aniq, o'lchanadigan va hisobdor mexanizmlarini qamrab oladi. Shu nuqtayi nazardan, davlat dasturini davlat siyosatining “amaliy konstitutsiyasi” sifatida baholash mumkin.

Davlat dasturida 337 ta aniq chora-tadbir belgilab berilgani birinchi qarashda hajm jihatidan katta ko'rinishi mumkin. Ammo mazmunga teranroq nazar tashlasak, bu raqam ortida islohotlarni sohalari bo'yicha bo'lish emas, balki ularni aniq vazifalar, muddatlar va ijrochilarga bog'lash mantig'i turibdi.

Shu bilan birga, 2026-yilda 59 ta sohaviy va 12 ta eng muhim strategik islohotlarni nazarda tutuvchi normativ-huquqiy hujjatlar ishlab chiqilishi rejalashtirilgani qonunchilik jarayonining ham rejali va tizimli tus olayotganidan dalolat beradi. Bu yerda qonun ijodkorligiga islohotlarni ortidan “yetib olish” vositasi emas, balki ularni oldindan ta'minlovchi institutsional asos sifatida qaralmoqda.

Davlat dasturi loyihasining keng jamoatchilik muhokamasidan o'tkazilishi islohotlarning eng muhim institutsional jihatlaridan. Internet va ommaviy axborot vositalari orqali 5 milliondan ziyod foydalanuvchi loyiha bilan tanishgani, 22 mingdan ortiq taklif va fikr bildirilgani bu raqamlar faqat statistika emas, balki jamiyatning davlat qarorlariga befarq emasligi, aksincha, faol ishtirok etishga tayyor ekanini ko'rsatadi.

Bu jarayonda muhokama formal “izoh qoldirish” bosqichidan chiqib, haqiqiy siyosiy muloqot shakliga aylandi. Oliy ta'lim tashkilotlari va davlat idoralarida o'tkazilgan 50 dan ortiq muhokamada 10 mingga yaqin talaba, professor-o'qituvchilar va davlat xizmatchilari ishtirok etgan esa ilmiy-ekspert salohiyatining qaror qabul qilish jarayoniga jalb etilganini anglatadi.

Muhokamarar natijasida 1000 ga yaqin taklifning hay'ati ishtirokini joriy etish tashabbusi sud hokimiyatiga jamoatchilikka yaqinlashtirish, adolatni faqat huquqiy emas, balki ijtimoiy qadriyat sifatida mustahkamlashga xizmat qiladi. Muhokamalarda mahalla mablag'i sarfi bo'yicha ochiq hisobdorlikni yo'lga qo'yish, ichki yo'llar, piyodalar va velosiped yo'llaklari

yotqizish, biznes-inkubatorlar barpo etish kabi takliflarning qiziqarli deb topilgani jamiyatda quyil darajadagi islohotlarga ehtiyoj katta ekanini ko'rsatadi.

Bu takliflar mamlakat taraqqiyoti faqat markaziy qarorlar bilan emas, balki mahalliy tashabbuslar orqali ham ta'minlanishi mumkinligini anglatadi. Mahalla aynan shu ma'noda davlat siyosati uchun “lakmus qog'oz”i vazifasini bajaradi. Davlat dasturini ishlab chiqish jarayonida xorijdagi vatandoshlar bilan o'tkazilgan muloqotlar alohida ahamiyatga ega. AQSH, Germaniya, Turkiya, Fransiya, Kanada, Janubiy Koreya, Yaponiya, Shvetsiya, Portugaliya va Qozog'istonda tashkil etilgan muhokamalarda 60 ga yaqin qo'shimcha taklif olingani O'zbekistondagi islohotlarning global tajriba bilan uyg'unlashayotganini ko'rsatadi.

Bu takliflar orasida nodavlat maktablar faoliyati uchun shaffof litsenziyalash mexanizmlarini joriy etish, ta'lim



amaliyotida korxona mutaxassislarini rag'batlantirish tizimini ishlab chiqish, sog'liqni saqlashda yagona raqamli skrinning tizimini joriy etish kabi tashabbuslar alohida e'tiborga loyiq.

Xorijdagi vatandoshlar ilgari surgan “natijaga bog'langan intiyoz” (performance-based subsidy) modeli va “Export-as-a-service” konsepsiyasi iqtisodiy siyosatda sifat o'zgarishini anglatadi. Bu yerda davlat qo'llab-quvvatlovi formal intiyoz emas, balki aniq iqtisodiy natijalar bilan bog'lanadi.

Ekspert qiluvchi korxonalar uchun logistika, bojxona, sertifikatlash, marketing va to'lov masalalarini yagona operator orqali kompleks xizmat sifatida taqdim etish tashqi bozorlarga chiqishdagi institutsional to'siqlarni kamaytiradi. Bunday yondashuv kichik va o'rta biznes uchun ham yangi imkoniyatlar ochadi.

Umuman olganda, davlat dasturi va uni ishlab chiqish jarayoni davlat va jamiyat o'rtasidagi munosabatlar yangi bosqichga ko'tarilayotganini ko'rsatadi. Davlat qaror qabul qiluvchi yagona subyekti emas, balki jamoatchilik, ekspertlar va xorijdagi vatandoshlar bilan hamkorlikda harakat qiluvchi institutga aylanmoqda.

Bu esa islohotlarning legitimligi, ijtimoiy qabul qilinishi va barqarorligini ta'minlaydi. Davlat dasturi aynan shu jihati bilan 2026-yilgi islohotlarning eng muhim institutsional ustuni sifatida namoyon bo'ladi.

2026-yilga mo'ljallangan islohotlar dasturlari va davlat dasturi mazmunini chuqur tahlil qilar ekanmiz, ular markazida umumiy g'oya turganini ko'ramiz — bu inson qadri. Ushbu tushuncha so'nggi yillarda davlat siyosatining bosh mezoniga aylangani tasodifiy emas. Chunki barqaror taraqqiyot, kuchli iqtisodiyot yoki samarali davlat boshqaruvi, eng avvalo, insonning farovon hayoti, ijtimoiy himoyasi va adolatga ishonchi bilan chambarchas bog'liq.

Bosh qonunimizda mamlakatimiz “ijtimoiy davlat” sifatida belgilab qo'yilgani bejiz emas. Ijtimoiy davlat faqat nafaqa yoki moddiy yordam berish tizimi emas, balki davlatning fuqaro oldidagi ma'naviy va huquqiy mas'uliyatini anglatadi. 2026-yildagi islohotlar aynan shu mas'uliyatni aniq mexanizmlar orqali ta'minlashga qaratilgan.

2026-yilga mo'ljallangan islohotlar dasturlari va davlat dasturi umumiy mantig'ini tahlil qilar ekanmiz, davlat, jamiyat va shaxs o'rtasida yangi muvozanat shakllanayotganini ko'ramiz. Davlat o'zini faqat nazorat qiluvchi yoki tartib o'rnatuvchi institut sifatida emas, balki sherik, himoyachi va imkoniyat yaratuvchi subyekti sifatida namoyon etmoqda.

Bu muvozanatda mahalla, fuqarolik jamiyati institutlari, ekspertlar va xorijdagi vatandoshlar ham faol ishtirok etmoqda. Natijada islohotlar “yuqoridagi quyiga” tushiriladigan qarorlar emas, balki jamiyat bilan hamkorlikda shakllanadigan jarayonga aylanmoqda.



Dasturlar ijrosini moliyalashtirish uchun ajratilayotgan 250,5 trillion so'm va jalb qilinayotgan 50,4 milliard dollarning samarali sarflanishi davlat siyosatiga ishonchni baholaydigan muhim omil. Shu bois, Adliya vazirligi va Hisob palatasi tomonidan doimiy monitoring yuritilishi, Vazirlar Mahkamasida har chorakda ijroni muhokama qilish, parlamentga hisobot taqdim etish mexanizmlari qo'llanmoqda. Bu tizim ijro jarayonida ochiqlik va hisobdorlikni ta'minlab, islohotlarning qog'ozda qolib ketish xavfini kamaytiradi.

Ushbu hujjatlar yurtimizda davlat siyosati sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarilayotganini ko'rsatadi. Bu bosqichda asosiy mezon inson hayotida seziladigan aniq natijalardir.

Yangi ish o'rinlari, aholi daromadining o'sishi, ijtimoiy himoyaning kuchayishi, adolat va ishonch muhitining mustahkamlanishi, islohotlarning haqiqiy samarasi aynan shu yerda namoyon bo'ladi. Davlatimiz rahbari belgilab bergan har bir qaror, har bir dastur, avvalo, odamlar roziligiga o'z aksini topishi shart. Ana shu tamoyil 2026-yilgi islohotlarning ham, “O'zbekiston — 2030” strategiyasining ham bosh mezon bo'lib qoladi.

Kitobxonlik

MADANIYATI

YOXUD KITOBNI MADANIY ATRIBUT EMAS, BALKI IJTIMOIIY TARAQQIYOT OMILI SIFATIDA ANGLASH ZARURATI

Asliddin ABDURAZZOQOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Tarixiy tajriba ko'rsatadiki, har qanday yuksalish davri bilimga munosabat bilan bevosita bog'liq bo'lgan. Ilmga, mutolaaga, fikr almashuviga e'tibor susaygan jamiyatlarda taraqqiyot uzluksiz davom etmagan. O'qish madaniyati shakllangan muhitda esa fikr mas'uliyati, shaxsiy javobgarlik va umumiy manfaat tushunchalari mustahkam o'rin olgan. Shu sababli kitobxonlik jamiyatning umumiy holati bilan chambarchas bog'liq masaladir. Bugun iqtisodiy o'sish, infratuzilma yangilanishi, boshqaruv tizimlari takomillashuvi bilan bir qatorda fikr sifati masalasi kun tartibiga chiqayotganining boisi ham shu. Jamiyatning ertangi kuni faqat moddiy ko'rsatkichlar bilan o'lchanmasligini tobora teranroq anglab yetar ekanmiz, bu holat, o'z navbatida, bilimga, mutolaaga, ma'naviy muhitga nisbatan yondashuvni qayta ko'rib chiqish zaruratini yuzaga keltirdi.

Davlatimiz rahbarining 2026-yil 15-yanvardagi “Kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va aholi o'rtasida kitob o'qishga qiziqishni oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori aynan shu ehtiyoj bilan bog'liq holda qabul qilingan muhim hujjatdir. Qarorda kitobxonlik alohida kampaniya yoki qisqa muddatli tashabbus sifatida talqin etilmay, aksincha, mutolaaga jamiyat hayotining turli bo'g'inlariga bevosita aloqador strategik vazifa o'laroq qaralayotganini kuzatish mumkin. Bu yondashuv kitobni madaniy atribut emas, balki ijtimoiy taraqqiyot omili sifatida anglashga asoslanadi. Ya'ni kitobxonlikka doir vazifalar ma'muriy talab shaklida qo'yilmagan. Asosiy e'tibor sharoit yaratishga, imkoniyatlarni kengaytirish va rag'batlantirish mexanizmlarini shakllantirishga qaratilgan. Shu nuqtayi nazaridan, kitobxonlik masalasini milliy xavfsizlik, intellektual barqarorlik va ijtimoiy mas'uliyat tushunchalari bilan bog'liq holda tushunar ekanmiz, ayni vaqtda qaror ortida turgan fikrlar tizimini anglash hamda ularning jamiyat rivojiga ta'sir doirasini o'rganish, atroflicha tahlilga tortish, munosabat bildirish ehtiyoji paydo bo'lishi tabiiy.

Moliyaviy va institutsional yechimlar

Jamiyatda muayyan odatlarning keng tarqalishi ularning shaxsiy tanlov doirasidan chiqib, umumiy qabul qilingan me'yor darajasiga ko'tarilganidan dalolat beradi. Bunday jarayon odatda uzoq muddatli ijtimoiy munosabatlar orqali shakllanadi. Kitobxonlik masalasi ham aynan shu yo'sinda baholalanishi lozim. Xususan, qarorga muvofiq, “Kitob — ma'rifat manbai” loyihasi doirasida aholi o'rtasida kitobxonlikni targ'ib qilish va

Yiliga o'rtacha 10 ta kitob o'qish maqsadi joriy etilishi ko'zda tutilmoqda. Ushbu ko'rsatkich orqali jamiyatga aniq yo'nalish beriladi, bunday yondashuv esa mutolaani alohida tashabbus darajasidan kundalik hayot tarkibiga olib kirishga xizmat qiladi.

Psixologlarning ta'kidlashicha, ijtimoiy me'yor darajasiga yetgan har qanday odat tashqi nazoratga muhtoj bo'lmaydi. Shu ma'noda, o'qish madaniyati keng yoyilgan muhitda insonning mutolaa bilan shug'ullanishi alohida e'tirof talab qilmaydi. Aksincha, undan chetda qolish savol tug'dirishi mumkin. Muayyan muddatda o'qilishi belgilangan kitoblar soni esa vaqt tushunchasini qayta tartiblaydi. O'qish jarayoni bo'sh paytga qoldiriladigan mashg'ulot emas, rejalashtiriladigan faoliyat sifatida idrok etilishi insonning shaxsiy rivojlanishiga bo'lgan munosabatini o'zgartiradi. Qisqasi, mutolaa bilan vaqtni mazmunan to'ldirish odatini shakllantirish orqali o'qish jarayoni uzluksiz va barqaror tus oladi.

Shu bilan birga, har qanday ijtimoiy tashabbus singari kitobxonlik masalasiga doir moliyaviy va institutsional yechimlarning alohida belgilanishi muhim ahamiyat kasb etadi. Negaki maqsad aniq ifodalangan taqdirda ham moliyaviy va tashkiliy asoslar yetarli darajada mustahkam bo'lmasa, natija kutilgan darajaga yetishi amrimahol. Demak, Kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish jamg'armasi tashkil etilishidan ko'zlangan maqsadni tushunish qiyin emas. Jamg'arma kitob bilan bog'liq jarayonlarni markazlashgan holda qo'llab-quvvatlash imkonini yaratadi. Nashr, tarjima, mualliflik huquqi, targ'ibat kabi yo'nalishlar yagona moliyaviy mexanizm orqali muvofiqashtiriladi.

Avvalgi davrlarda kitob nashri va tarjima masalalari ko'pincha alohida tashabbuslar doirasida hal etilib kelindi. Bunday yondashuv uzoq muddatli rejalashtirish imkonini cheklashi ayon. Jamg'arma faoliyati esa bu jarayonni tizimli yo'lga qo'yadi. Moliyaviy resurslarning maqsadli yo'naltirilishi natijasida nashrlar sifati, tarjimalarning puxtaligi va mualliflik huquqiga munosabatda barqarorlik yuzaga keladi. Tarjima, nashrga tayyorlash va chop etish xarajatlari uchun ajratiladigan mablag' miqdori oshirilishi alohida mavzu. Bu orqali jahon tajribasi, ilmiy va badiiy meros bilan tanishish imkoniyatlari kengayadi. Shu bilan birga, milliy adabiyotning ichki rivoji uchun zarur sharoit yaratiladi.

Moliyaviy mexanizmlarning aniqligi sohada mas'uliyatni oshiradi. Mablag' ajratilishi bilan birga natija uchun javobgarlik masalasi ham kun tartibiga chiqadi. Qaysi loyihalar ustuvor hisoblanishi, qaysi yo'nalishlar jamiyat ehtiyojlariga mos kelishi ochiq muhokama etilishi bu borada muhim. Shuningdek, jamg'arma orqali tarjima va nashr xarajatlarining muayyan qismini qoplash mexanizmi ham alohida e'tiborga loyiq. Bu, o'z navbatida, sohaga xususiy tashabbuslarni jalb etish imkonini kengaytiradi. Nashriyotlar, tarjimonlar, mualliflar uchun xavf darajasi kamayadi. Shu tariqa moliyaviy va institutsional asoslar kitobxonlik siyosatining tayanch nuqtasiga aylanadi. Bu asoslar tashabbuslarning uzluksizligini, rejalarning izchilligini, natijalarning barqarorligini ta'minlaydi.

“Jadidlar izidan”

Yosh avlod qanday bilim egallaydi, o'z hayot konsepsiyasini tanlashda qaysi manbalarga tayanadi, nimalardan ulgi oladi, fikrni qay tarzda shakllantiradi, bayon qiladi — ana shu omillar jamiyat ertangi kunining sifatini belgilaydi. Shu sababli kitobxonlik masalasida yoshlar bilan ishlash alohida yo'nalish sifatida ko'rinishi tabiiy

hol. Yosh avlod bilan bog'liq siyosatda asosiy masala bilimga, kitobxonlikka munosabatni shakllantirishdir. O'qish majburiyat sifatida qabul qilingan muhitda mutolaa so'jako'rsindan nariga o'lmaydi, u ehtiyojga aylanganda esa tafakkur tabiiy ravishda rivojlanadi. Qarorda yoshlar uchun belgilangan tashabbuslar aynan shu farqni hisobga olgan holda ishlash chiqilgan. Chunonchi, maktab yoshida mutolaa odatini shakllantirish masalasiga to'xtalsak. Aynan shu davrda insonning dunyoni idrok etish usuli, savol berish qobiliyati, o'z fikriga munosabati tarkib topadi. Kitob bilan erta tanishgan yosh voqelikni tayyor sxemalar emas, mulohaza orqali anglashga moyil bo'ladi. Bu jarayon shaxsiy intizomni, e'tiborni jamlash, fikrni izchil bayon etish ko'nikmalarini mustahkamlaydi.

“Jadidlar izidan” nomi bilan yo'lga qo'yilayotgan kitobxonlik klubi loyihasi mazmunan tarixiy xotiraga suyanadi. Jadidlar faoliyati, avvalo, yosh avlodni o'qishga, anglashga, dunyo bilan fikr orqali muloqot qilishga chorlagan. Ularning asosiy g'oyasi tayyor haqiqatlarni takrorlash emas, bil'aks, savol qo'yish madaniyatini shakllantirishdan iborat bo'lgan. Bugungi sharoitda bu yondashuv zamonaviy ehtiyojlarga mos holda qayta talqin qilinyapti.

Mazkur klub doirasida yoshlar uchun mutolaa individual mashg'ulotdan jamoaviy tajribaga aylantiriladi. O'qilgan asarlar yuzasidan fikr almashish, bahs yuritish, mulohaza bildirish yoshlarni tayyor xulosani qabul qilish o'miga o'z qarashini shakllantirishga yo'naltiradi. Fikrni asoslash, dalil keltirish, boshqacha qarashlarga munosabat bildirish madaniyati asta-sekin qaror topadi.

Kitobxonlik klubi yoshlarning yiliga kamida 20 ta kitob o'qishini ta'minlashni nazarda tutmoqda. Mazkur tashabbus mutolaani vaqt bilan bog'lash, o'qishni rejalashtirilgan faoliyatga aylantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, yoshlar o'rtasida kitobxonlikni rag'batlantirish masalasi ustuvor. Negaki rag'bat mehnat va natija o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rsatadi. O'qish orqali erishilgan bilim va tafakkur jamiyat tomonidan e'tirof etilishi yoshlar uchun ijobiy munosabat uyg'otib, mutolaani ijtimoiy nufuz omiliga aylantiradi.

Mutolaa orqali shakllanayotgan fikrlash madaniyati yoshlarning hayotiy tanlovariga ham ta'sir ko'rsatadi. O'qilgan, solishtirgan, xulosa chiqargan yosh voqelikka bir yoqlama yondashmaydi. U sabab va oqibatni ajratishga odatlanadi. Shaxsiy mas'uliyat, ijtimoiy pozitsiya, ongli qaror qabul qilish kabi sifatar aynan shu jarayonda o'z samarasini namoyon etadi.

Muallif va ijod mas'uliyati: adabiy mehnat bahosi

Har bir davrning o'z savol-so'roqlari bo'ladi, bu savollarga javob topish jarayoni esa muayyan fikr egalari orqali kechadi. Ana shu jarayonda muallif shunchaki matn yaratuvchi shaxs emas, balki jamiyat ongiga ta'sir ko'rsatuvchi mas'ul subyekt sifatida maydonga chiqadi. Shu bois, adabiy ijodga munosabat jamiyatning qay bir ma'noda o'z fikriga bo'lgan munosabati hamdir. Shunga qaramay, uzoq vaqt davomida ijodkor faoliyatiga ko'proq ichki ehtiyoj mahsuli sifatida qaralib kelindi. Bunday yondashuv esa adabiyotning ijtimoiy vazifasini tan olmaslik, uni aylanib o'tishga behuda urinishdan boshqa narsa emas. Ijodkorlar aslida jamiyat hayotida muhim rol o'ynasada, ularning mehnati ko'pincha tizimli qo'llab-quvvatlashdan chetda qolib kelganini ham hech bir vaj bilan oqlab bo'lmaydi, nazarimizda.

O'zbekiston Prezidenti qarorida mualliflarni aniqlash va ularning ijodiy faoliyatini moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlash masalasining kun tartibiga chiqishi ushbu muammo o'z vaqtida anglab, unga samarali yechim takdim etilayotganidan darak. Afsuski, ijodkorni moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlash masalasi ko'pincha noto'g'ri talqin qilinadi. Mohiyatan gap faqat rag'bat haqida ketayotgani yo'q. Asosiy masala ijod uchun zarur bo'lgan sharoit yaratishdan iborat.

Qarorda nazarda tutilgan “Iste'dodli mualliflar” loyihasi doirasida yosh yozuvchi va tarjimonlarni rag'batlantirish mexanizmi orqali tanlov asosida aniqlanadigan mualliflarga bir yilgacha haq to'lanishi ijodiy mehnatni rejalashtirilgan faoliyatga aylantiradi. Muallif o'z vaqtini izchil ravishda ijodga bag'ishlash imkoniga ega bo'ladi. Bu holat puxta ishlangan asarlar yaratilishi uchun sharoit hozirlaydi. Ayni paytda ijod erkligi bilan ijtimoiy mas'uliyat o'rtasida muvozanat qaror topadi.

Mazkur yondashuv adabiy muhitda tanlov mezonlarini ham aniqlashtiradi. Ijodkorning fikr kengligi, mavzuga yondashuvi, jamiyat hayotiga munosabati e'tibor markaziga chiqadi. Bu esa adabiyotning ichki sifatiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi turgan gap. Muallifga yaratilayotgan sharoitlar adabiyotning jamiyat bilan aloqasini mustahkamlaydi. Ijodkor fikr bildirish, bahsga kirishish, mas'ul savollar qo'yish imkoniga ega bo'ladi. Shu orqali adabiyot jamiyat hayotining faol ishtirokchisiga aylanadi. Shu jihatdan ham mualliflarni aniqlash va ularning ijodiy

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetaları tahririyati” DM

BOsh muharrir:

Salim DONIYOROV

Qabulxona: (71) 233-56-33 Devonxona va e'lonlar: (71) 233-70-98 E-mail: info@yuz.uz Veb-sayt: www.yuz.uz: (71) 233-47-05

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqrız qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi. Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar. Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi. Gazetaning poligrafik jihatdan sifatlı chop etilishiga “SHARQ” NMAK mas'ul. Bosmaxona telefonı: (71) 233-11-07.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan. **Nashr indeksi** — 236. **Buyurtma** G-246. 30829 nusxada bosildi. **Hajmi** — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. **Qog'oz bichimi** A2. Bahosi kelishilgan narxda. “SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi.

Navbatchi muharrir: Sanjar Eshmurodov Musahhih: Malohat Mingboyeva Dizayner: Zafar Ro'ziyev

Manzillimiz: 100060, Toshkent shahri, Shahrisabz ko'chasi, 85-uy

O'ZA yakuni — 06:45